

“Radiopreparat” ixtisoslashtirilgan ilmiy-ishlab chiqarish markazi faoliyati bilan yaqindan tanishtirish maqsadida tashkil etilayotgan press-turga taklif etamiz

Hurmatli ommaviy axborot vositalari vakillari!

Sizni Fanlar akademiyasi Yadro fizikasi instituti huzuridagi “Radiopreparat” ixtisoslashtirilgan ilmiy-ishlab chiqarish markazi faoliyati bilan yaqindan tanishtirish maqsadida tashkil etilayotgan press-turga taklif etamiz.

Bugungi kunda yadro tibbiyoti fizika, kimyo, biologiya va klinik amaliyot yutuqlarini oʻzida mujassam etgan, zamonaviy tibbiyotning eng jadal rivojlanayotgan yoʻnalishlaridan biridir. Mazkur yoʻnalishda respublikamizda radioizotop va radiofarmatsevtika mahsulotlarini barqaror ishlab chiqarib kelayotgan “Radiopreparat” markazi faoliyati siz uchun qiziqarli va foydali boʻlishiga ishonamiz!

Press-tur davomida siz:

radiofarmatsevtika mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayonlari bilan tanishasiz;
yadro tibbiyoti sohasidagi soʻnggi ilmiy ishlanmalar haqida maʼlumot olasiz;
yetakchi mutaxassis va olimlar bilan muloqot qilasiz.

Tadbir vaqti: 2025-yil 17-dekabr, soat 10:00

Tadbir joyi: FA Yadro fizikasi instituti huzuridagi “Radiopreparat” davlat muassasasi.

Eslatma: Press-turga soat 09:00da Fanlar akademiyasi Prezidiumi binosi oldidan joʻnab ketiladi. Oldindan roʻyxatdan oʻtish soʻraladi.